

Universitetimiz talabalari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga tashrifi

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti "Mashinasozlik texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabalari "Suyuqliklar mexanikasi va gidravlika (Fluid mechanics and hydraulics)" fani doirasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutidagi amaliy o'quv dars jarayonlari hamda laboratoriya uskunalari bilan yaqindan tanishish uchun institutga tashrif buyurdilar. Tashrif davomida talabalar institutning "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasida o'quv laboratoriyasi, Avtotraktor dvigatellari va yonilg'i moylash materiallari tajriba laboratoriyasi va boshqa ko'rgazma stendlari bilan yaqindan tanishishdi. Ushbu tashrif fanni chuqurroq o'zlashtirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va pirovardida sanoatning yuqori texnologiyaga asoslangan tarmoqlari uchun yetuk mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilishiga ishonamiz.









